

---

## MUAMMO DEPUTATGA HAVOLA ETILDI

Kuz-qish oylarining yog'in-sochinli kunlari boshlanishi bilan asfaltlashtirilmagan va shag'allashtirilmagan ko'chalarda muammo paydo bo'ladi. Shunday ko'chalardan biri Paxtakor mahalla fuqarolar yig'ini hududidagi Yoshlarobod ko'chasi edi. Yog'in-sochinli kunlarda bu yo'ldan maktab o'quvchilari qiynalib maktabga qatnashar edi.

Saylovchilar tomonidan ushbu muammo 40-Paxtakor saylov okrugidan Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylangan deputat Xojiqo'zjon Isaqovga havola etildi.



---

Deputat Xojiqo'zjon Isaqov ushbu muammoni o'rganib, Yoshlarobod ko'chasining 150 metr qismini shag'allashtirishda yordam berdi.

Biz deputatimiz Xojiqo'zjon Isaqovga ushbu ko'chada yashovchi ota-onalar va o'quvchilar nomidan o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

**Sh.XALILOV,**

**31-umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori.**

2020-11-10 09:26:09